ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,3

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать. Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail: philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт: https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

Professor Ibodulla Mirzayev ilmiy maktabining shakllanishi va taraqqiyoti 7

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ ПАНЖИЕВИЧ
Инициальные консонантные кластеры в современном узбекском языке: инвентарь, структурные типы и статистическая представленность (в сопоставлении с русским языком) 13

UMURQULOV ZAFAR BEKPO‘LATOVICH
Til – madaniyat ko‘zgusi 18

IBRAGIMOV JASURBEK TO‘LQINJON O‘G‘LI
Epitet tematikasi (“Alpomish” dostoni misolida) 23

ИШАНХАНОВА МУХЛИСАБОНУ ТУРГУНОВНА
Морфологические категории арабского языка в когнитивной интерпретации эпохи NAHḌA 27

SULEYMANLI ATILLA NAZIM O‘G‘LU
Ozarbayjon ma’rifatparvarligi va o‘zbek jadidchiligida milliy o‘zlikni anglash g‘oyasining genezisi 33

SAMANDAROVA GULHAYO ERKIN QIZI
Ijtimoiy tarmoqlarda o‘zbek tilining rivojlanish tendensiyalari 42

QURBANBAYEVA NILUFAR ILXAMOVNA
O‘zbek va ingliz tillarida olqish, duo va tilak so‘zlarining lingvokulturologik xususiyatlari 47

KARIMOV ABDULATIF ABDUG‘AFOROVICH
Til tizimini maydonlar orqali tushunish g‘oyasining vujudga kelishi 52

XURSANOV MAXMUD G‘AYRAT O‘G‘LI
Termiz shahri ko‘cha nomlarining yasalish xususiyatlari 59

МУНДАРИЖА

TURG‘UNOVA MAFTUNAXON JAMOLDIN QIZI
Topishmoqlarni tasniflash muammolari 63

MAXAMMATOVA FERUZA OLIMOVNA
«Vaqt» konseptining badiiy ifodalanishi 67

JUMANOVA ORZIGUL
Cho‘lponning «Kecha va kunduz» romanidagi maqollarning
inglizcha tarjimalarida lingvomadaniy konseptlarning ifodalanishi 71

IKROMOVA CHAROSXON
G‘afur G‘ulom «Shum bola» asaridagi monosemantik
va polisemantik so‘zlar tahlili 75

QURBONOVA KAMOLA ABDURAHMONOVNA
Kognitiv tilshunoslikda “Figura-fon” tamoyili haqida 78

ADABIYOTSHUNOSLIK

OTAQULOVA DILDORA OYBEK QIZI
Tesha Saydaliyev she'riyatida mavzu va g‘oya uyg‘unligi 81

ЭШОНҚУЛОВ ИЛҲОМ АБДУСАЛОМОВИЧ
Мирсиддиқхон Ҳашмат тазкираларининг илмий
аҳамияти ва адабий қиймати 84

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

Fanimiz fidoyilari



PROFESSOR IBODULLA MIRZAYEV ILMIY MAKTABINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI

O‘zbek filologiyasi tarixida ilmiy izlanishlarini bir yo‘nalish bilan cheklamagan, tilshunoslikning turli sohalarini yagona metodologik tizim asosida rivojlantira olgan olimlar ko‘p emas. Professor Ibodulla Kamolovich Mirzayev ana shunday serqirra tadqiqotchilardan biridir. U tarjimashunos, stilist, lingvopoet, qiyosiy tilshunos hamda ilmiy maktab yaratgan ustoz sifatida o‘zbek filologiyasi taraqqiyotida munosib o‘rin egallaydi. Olimning ilmiy faoliyati tarjima nazariyasi, fransuz tilshunosligi, lingvostilistika, lingvopoetika va badiiy matn tahlili kabi bir-biri bilan uzviy bog‘liq yo‘nalishlarni qamrab oladi. Mazkur yo‘nalishlarning barchasini yagona ilmiy konsepsiya asosida uyg‘unlashtirgani uning ilmiy merosining eng muhim xususiyatlaridan biridir.

Professor Mirzayevning ilmiy tafakkuri shakllanishida 1971–1974-yillarda Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) davlat universitetida o‘tgan aspirantlik davri alohida ahamiyat kasb etdi. Bu yillarda u ikki yirik ilmiy maktab vakillari – roman tilshunosligi kafedrasi professori Nadejda Nikolayevna Teterevnikova hamda turkiy filologiya kafedrasining taniqli olimi, shoir va tarjimon Sergey Nikolayevich Ivanov rahbarligida ilmiy izlanishlar olib bordi. G‘arbiy Yevropa tilshunosligi bilan turkiy filologiyaning nazariy yutuqlari aynan shu davrda yosh olim tafakkurida tabiiy ravishda uyg‘unlashdi.

Aspirantlik yillaridayoq Mirzayev fransuz tilshunosligining klassik maktablarini chuqur o‘rgana boshladi. Ayniqsa, mashhur shveysariyalik tilshunos, Ferdinand de Sossyurningning eng iste'dodli shogirdi yaratgan «Stylistique française» («Fransuz stilistikasi») asari yosh tadqiqotchining ilmiy qarashlariga kuchli ta'sir ko‘rsatdi. Mirzayev ushbu fundamental asarni o‘zbek tiliga tarjima qilish ishini boshlab, uning ayrim bob va parchalarini ilmiy nashrlarda e'lon qildi. Garchi tarjima to‘liq kitob holida chop etilmagan bo‘lsa-da, bu ish o‘zbek filologiyasida fransuz stilistikasi bilan bevosita tanishishga xizmat qilgan dastlabki ilmiy tajribalardan biri bo‘ldi.

Charles Ballyning ekspressiv stilistika haqidagi nazariyasi Mirzayevning keyingi ilmiy faoliyatini belgilab berdi. U badiiy matnni tushunish va tarjima qilish uchun grammatik hamda lug‘aviy bilimning o‘zi kifoya emasligini, matnning uslubiy, estetik va poetik qatlamlarini ham chuqur anglash zarurligini anglab yetdi. Ana shu ilmiy xulosa keyinchalik olimning tarjimashunoslikdan lingvopoetikaga tomon izchil o‘tishiga zamin yaratdi.

Shu tariqa professor Ibodulla Mirzayev ilmiy faoliyatining dastlabki bosqichidayoq tarjima, stilistika va lingvopoetikani bir-biridan ajralmas ilmiy yo‘nalishlar sifatida talqin qila boshladi. Keyingi yillarda yaratgan nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari aynan ana

shu yaxlit metodologik qarashning mantiqiy davomi bo'ldi. Bugun, oradan yarim asrdan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa-da, uning ilmiy merosi o'zbek tarjimashunosligi va lingvopoetikasining nazariy taraqqiyotida muhim manbalardan biri bo'lib qolmoqda.

Tarjimashunoslikdan lingvopoetikagacha: ilmiy tafakkurning shakllanishi

Professor Ibodulla Mirzayevning ilmiy faoliyatini kuzatar ekanmiz, unda tasodifiy yoki bir-biridan uzilgan tadqiqot yo'nalishlarini emas, balki ichki mantiq va izchillikka ega bo'lgan uzluksiz ilmiy evolyutsiyani ko'ramiz. Uning izlanishlari tarjima nazariyasidan boshlanib, stilistika orqali lingvopoetikaga qadar tabiiy ravishda rivojlandi. Bu taraqqiyot alohida mavzular almashinuvi emas, balki badiiy matnni tobora chuqurroq anglashga intilgan filolog tafakkurining mantiqiy yo'lidir.

Aspirantlik yillarida fransuz stilistikasini chuqur o'rganish, ayniqsa, Charles Ballyning ekspressiv stilistika haqidagi qarashlari bilan yaqindan tanishish Mirzayevning ilmiy dunyoqarashida muhim burilish yasadi. U Ballyning tilni faqat grammatik tizim emas, balki inson hissiyoti, tafakkuri va estetik munosabatini ifodalovchi tirik hodisa sifatida talqin etish g'oyalarini chuqur o'zlashtirdi. Shu bois yosh tadqiqotchi uchun tarjima oddiy til almashtirish emas, balki uslub, obraz va badiiy ta'sirni qayta yaratish san'atiga aylandi.

Shu davrda u fransuz stilistikasiga oid ilmiy adabiyotlarni muntazam mutolaa qildi, Charles Ballyning «Stylistique française» asarini o'zbek tiliga tarjima qilish ustida ishladi hamda uning ayrim bo'limlarini ilmiy jamoatchilikka taqdim etdi. Bu ish nafaqat tarjima tajribasi, balki o'zbek filologiyasida fransuz lingvostilistik tafakkurini targ'ib etishga qaratilgan dastlabki ilmiy qadamlardan biri bo'ldi.

Badiiy matnlar ustida olib borilgan izlanishlar Mirzayevni muhim ilmiy xulosaga olib keldi: matnni to'g'ri tarjima qilish uchun avvalo uni to'g'ri tushunish kerak, matnni to'g'ri tushunish esa uning grammatik qurilishini bilish bilangina emas, balki uslubiy, poetik, madaniy va estetik qatlamlarini ham anglash bilan bog'liq. Ana shu xulosa keyinchalik uning barcha ilmiy izlanishlarining metodologik asosiga aylandi.

Professor Mirzayev shu davrdan boshlab filologiyaning turli yo'nalishlarini o'zaro bog'liq holda o'rganishga kirishdi. U stilistika bilan bir qatorda poetika, ritorika, matnshunoslik, adabiyot nazariyasi va tarjimashunoslikka oid fundamental manbalarni chuqur tahlil qildi. Uning nazarida badiiy matn faqat til birliklari yig'indisi emas, balki estetik tafakkur mahsuli bo'lib, uni anglash ham kompleks filologik yondashuvni talab qiladi.

Bu ilmiy izlanishlar keyinchalik olimning lingvopoetika haqidagi qarashlarini shakllantirdi. Mirzayev lingvopoetikani tilshunoslik va adabiyotshunoslik tutashgan nuqtada vujudga keladigan, badiiy matnning estetik mohiyatini ochib beruvchi mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida talqin qildi. Uning fikricha, filologning asosiy vazifasi matnni nafaqat o'qish yoki sharhlash, balki uning ichki badiiy mexanizmini, obrazlar tizimini, uslubiy vositalarini va estetik ta'sir kuchini ilmiy asosda izohlashdan iborat.

Aynan shu sababli professor Mirzayevning keyingi ilmiy faoliyati tarjima nazariyasidan lingvopoetik tadqiqotlarga tomon yo'naldi. 1987–1989-yillarda u yana Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) davlat universitetiga qaytib, professor Sergey Nikolayevich Ivanov rahbarligida ilmiy izlanishlarini davom ettirdi. Bu davrda u badiiy matnning lingvopoetik tahliliga bag'ishlangan yirik tadqiqot ustida ishladi. Mazkur izlanishlar keyinchalik O'zbekiston Fanlar akademiyasi tizimida muvaffaqiyatli himoya qilingan doktorlik dissertatsiyasining nazariy asosini tashkil etdi.

Shunday qilib, professor Ibodulla Mirzayevning ilmiy faoliyatida tarjimashunoslik, stilistika va lingvopoetika bir-biridan mustaqil yo'nalishlar emas, balki yagona ilmiy konsepsiyaning uzviy bosqichlari sifatida namoyon bo'ladi. Aynan mana shu yaxlit yondashuv uning ilmiy merosining eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, bugungi o'zbek filologiyasida ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Xos so'zlar (realiyalar) – til va madaniyat tutashgan nuqta

Professor Ibodulla Mirzayev ilmiy faoliyatining dastlabki yirik natijasi 1975-yilda Leningrad davlat universitetida muvaffaqiyatli himoya qilingan «Fransuzcha xos so'zlar (realiyalar)ning o'zbek tiliga tarjimasi muammolari» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi bo'ldi. Mazkur tadqiqot o'zbek tarjimashunosligi tarixida realiyalar tarjimasiga bag'ishlangan dastlabki fundamental ilmiy ishlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etdi. Unda tarjima nazariyasining eng murakkab va bahsli masalalaridan biri bo'lgan milliy-madaniy birliklarni boshqa til vositalari orqali adekvat ifodalash muammosi chuqur

ilmiy asosda tadqiq qilindi.

Dissertatsiyaning metodologik yangiligi, avvalo, realiya hodisasining mohiyatini yangicha talqin etganida namoyon bo'ladi. Muallif realiyani oddiy lug'aviy birlik yoki predmet nomi sifatida emas, balki xalqning tarixiy tajribasi, turmush tarzi, urf-odatlari, milliy tafakkuri va madaniy xotirasini o'zida mujassamlashtirgan lingvomadaniy birlik sifatida izohlaydi. Shu tariqa realiya tarjimasi leksik muammo doirasidan chiqarilib, til, tafakkur va madaniyat kesishgan nuqtadagi murakkab filologik hodisa sifatida talqin qilinadi.

Dissertatsiyada «realiya» terminining etimologiyasi va ilmiy taraqqiyoti atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, realiyalar tarixiy, etnografik, maishiy, geografik, ijtimoiy-siyosiy va madaniy guruhlarga ajratilib, ularning har biri tarjimada yuzaga keltiradigan o'ziga xos qiyinchiliklar boy faktik material asosida yoritiladi. Muallif nazariy xulosalarini 1929–1975-yillar davomida fransuz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan badiiy hamda ilmiy asarlar tahliliga tayangan holda asoslaydi. Ana shu jihati bilan dissertatsiya nazariy mulohazalar majmui emas, balki boy empirik materialga tayangan fundamental tadqiqot sifatida qadrlanadi.

Professor Mirzayev xos so'zlarni tarjima qilishning asosiy usullarini ham ilmiy tizimga soladi. U transkripsiya, kalka, tavsifiy tarjima va kontekstual almashtirish strategiyalarining imkoniyatlari hamda qo'llanish doirasini batafsil tahlil qiladi. Muallifning asosiy xulosasi shundan iboratki, tarjimada yagona universal usul mavjud emas; har bir realiyaning semantik, uslubiy va madaniy xususiyatidan kelib chiqib, eng maqbul strategiyani tanlash lozim. Bu yondashuv bugungi funksional tarjima nazariyasining asosiy tamoyillari bilan hamohangdir.

Dissertatsiyaning eng muhim ilmiy g'oyalaridan biri shundan iboratki, tarjimada narsa emas, balki uning tildagi nomi va shu nom orqali ifodalangan madaniy mazmun tarjima qilinadi. Ushbu fikr o'sha davr tarjimashunosligida hukmron bo'lgan formal ekvivalentlik qarashlariga nisbatan yangicha metodologik yondashuv edi. Muallif realiyani tilning madaniy kodi sifatida baholab, tarjimonning asosiy vazifasi ana shu kodni boshqa til vositalari orqali imkon qadar to'liq qayta yaratishdan iborat ekanini ilmiy dalillar bilan asoslaydi.

Bugungi kunda kognitiv tarjimashunoslik, lingvokulturologiya va madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyalarida keng qo'llanilayotgan madaniy kod, milliy konsept, lingvomadaniy birlik, madaniy xotira kabi tushunchalar mazmunan professor Mirzayev ilgari surgan qarashlar bilan mushtarakdir. Bu esa olimning ilmiy tafakkuri o'z davridan ilgarilab ketganini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning yana bir muhim fazilati muallifning ilmiy xolisligi va mustaqil tafakkuridir. U o'sha davr tarjimashunosligining yetakchi nazariyotchilari bilan erkin ilmiy muloqotga kirishadi, ularning nazariy qarashlarini tanqidiy tahlil qiladi va zarur o'rinlarda o'zining dalillarga asoslangan xulosalarini ilgari suradi. Bu holat yosh tadqiqotchining ilmiy jasorati va metodologik mustaqilligidan dalolat beradi.

Bugun, oradan yarim asr o'tgan bo'lsa-da, mazkur dissertatsiya o'z ilmiy ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Aksincha, sun'iy intellekt, mashinali tarjima va global madaniy muloqot sharoitida unda ilgari surilgan nazariy g'oyalar yangi mazmun kasb etmoqda.

Ilmiy bahs madaniyati va mustaqil ilmiy pozitsiya

Professor Ibodulla Mirzayevning nomzodlik dissertatsiyasini alohida qadrlashga asos beradigan jihatlardan biri uning yuksak ilmiy bahs madaniyatidir. Yosh tadqiqotchi o'z davrining eng nufuzli tarjimashunos olimlari qarashlarini shunchaki bayon qilish yoki takrorlash bilan cheklanmaydi. Aksincha, u har bir nazariy fikrni boy faktik material asosida sinovdan o'tkazadi, kuchli va zaif tomonlarini xolis baholaydi hamda zarur hollarda o'zining mustaqil ilmiy xulosalarini ilgari suradi. Bu esa uning ilmiy tafakkuri tayyor qoliplar asosida emas, balki dalil, mantiq va tahlil asosida shakllanganini yaqqol ko'rsatadi.

Dissertatsiyada sovet tarjimashunoslik maktabining yirik vakillari – Andrey V. Fedorov, Korney Chukovskiy, Vilen N. Komissarov hamda Grigoriy Etkindning nazariy qarashlari chuqur tahlil qilinadi. Muallif ularning har biriga hurmat bilan munosabat bildiradi, ilmiy xizmatlarini e'tirof etadi, biroq hech bir fikrni mutlaq haqiqat sifatida qabul qilmaydi. Ilmiy haqiqat mezoni sifatida u faqat dalil, matn va qiyosiy tahlilni tanlaydi.

Mirzayev, xususan, Fedorovning lingvistik ekvivalentlik nazariyasini yuksak baholaydi. Biroq u ekvivalentlikni faqat grammatik yoki leksik moslik bilan cheklash mumkin emasligini, tarjimada milliy-madaniy komponent ham hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini isbotlaydi. Muallifning fikricha, realiyalar tarjimasida formal moslikdan ko'ra, milliy mazmun va madaniy axborotni saqlash ustuvor vazifa hisoblanadi.

Korney Chukovskiyning badiiy tarjima haqidagi qarashlari ham alohida tahlil qilinadi. Mirzayev tarjimaning badiiy ta'sirini saqlash zarurligini inkor etmaydi, ammo estetik go'zallikni ta'minlash bahonasida milliy koloritni yo'qotish yoki realiyalarni almashtirish ilmiy jihatdan o'zini oqlamasligini ko'plab misollar

orqali ko'rsatadi. Uning nazarida haqiqiy tarjima mahorati asl matnning milliy ruhini, madaniy rang-barangligini va uslubiy o'ziga xosligini saqlab qolishda namoyon bo'ladi.

Vilen Komissarovning ekvivalentlik darajalari haqidagi nazariyasi ham dissertatsiyada tanqidiy ruhda ko'rib chiqiladi. Professor Mirzayev realiyalar tarjimasida pragmatik va lingvomadaniy omillar ko'pincha formal ekvivalentlikdan ustun turishini ta'kidlaydi. Shu tariqa u tarjimaning kommunikativ va madaniy vazifalarini birinchi o'ringa qo'yadigan yondashuvni asoslaydi.

Dissertatsiyada Grigoriy Etkindning badiiy tarjima va poetik uslub haqidagi qarashlariga ham murojaat qilinadi. Mirzayev Etkindning stilistik tahlilga bergan yuksak bahosini qo'llab-quvvatlaydi, biroq tarixiy va milliy realiyalarni tarjima qilish masalasi uning tadqiqotlarida yetarli darajada yoritilmaganini qayd etadi. Shu bilan birga, Etkindning badiiy matnni lingvostilistik tahlil qilishga oid metodologik tamoyillari keyinchalik Mirzayevning lingvopoetik qarashlari shakllanishiga ham samarali ta'sir ko'rsatganini ko'rish mumkin.

Dissertatsiyaning yana bir muhim xususiyati shundaki, undagi barcha nazariy xulosalar keng faktik material bilan mustahkamlangan. Muallif yuzlab tarjima misollarini qiyosiy tahlil qilib, o'z xulosalarini statistik kuzatishlar, uslubiy tahlillar va kontekstual izohlar orqali asoslaydi. Bu esa tadqiqotning ilmiy ishonchliligini yanada oshiradi.

Professor Mirzayevning ilmiy bahs uslubi bugungi yosh tadqiqotchilar uchun ham ibrat maktabidir. U ilmiy polemikani shaxslar bilan emas, g'oyalar bilan olib boradi; e'tiroz bildirganda ham dalilga tayanadi, tanqid qilganda ham ilmiy odob doirasidan chiqmaydi. Ana shu fazilatlar uning dissertatsiyasini nafaqat tarjimashunoslik bo'yicha fundamental tadqiqot, balki ilmiy tafakkur va ilmiy muloqot madaniyatining yorqin namunalaridan biriga aylantiradi.

Antroponim va toponimlar tarjimasi: ilmiy bashoratning bugungi tasdig'i

Professor Ibodulla Mirzayev nomzodlik dissertatsiyasining eng qimmatli jihatlaridan biri unda antroponimlar va toponimlarni tarjima qilish masalasiga bag'ishlangan ilmiy tavsiyalardir. O'sha davr tarjimashunosligida bu masala asosan amaliy muammo sifatida qaralgan bo'lsa, Mirzayev unga nazariy nuqtai nazardan yondashdi va kishi hamda joy nomlarini tarjima qilishning lingvistik tamoyillarini ishlab chiqdi. Bu tavsiyalar bugungi kunda ham o'z ilmiy va amaliy ahamiyatini yo'qotmagan.

Muallif fransuz va ingliz tillarining fonetik hamda grafik tizimlarini qiyosiy tahlil qilib, ushbu tillarda birgina tovushni ifodalash uchun ikki, uch, ba'zan esa to'rt harf birikmasidan foydalanilishini ko'rsatadi. Shuning uchun ham bunday tillardan o'zbek tiliga tarjima qilishda yozuv shakliga emas, balki asl talaffuzga tayanish, ya'ni transkripsiya tamoyilini qo'llash zarurligini ilmiy asoslaydi. Olimning fikricha, tarjimon harflarni emas, balki tovushni ko'chirishi kerak. Chunki yozuv til tizimining tashqi qobig'i bo'lsa, talaffuz uning haqiqiy fonetik mohiyatini ifodalaydi.

Mirzayev antroponim va toponimlarni oddiy atoqli otlar sifatida emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, milliy madaniyati va etnik o'zligini mujassamlashtirgan lingvomadaniy birliklar sifatida talqin qiladi. Shu bois ularni grafik shakliga qarab mexanik tarzda ko'chirish yoki vositachi til orqali berish nomning fonetik qiyofasini, tarixiy xususiyatini va madaniy koloritini buzishi mumkinligini ta'kidlaydi. Tarjimada transkripsiyaga amal qilish esa, aksincha, nomning milliy o'ziga xosligini saqlashga xizmat qiladi.

Oradan ellik yil o'tib, olim ilgari surgan mazkur ilmiy qarashlarning naqadar uzoqni ko'zlagani yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari, internet nashrlari, elektron platformalar va hatto ayrim rasmiy hujjatlarda fransuz hamda ingliz tillaridagi ko'plab antroponim va toponimlar asl talaffuziga emas, yozilishiga qarab yoki uchinchi til vositasida berilmoqda. Natijada bir xil nomning bir necha xil yozilishi uchramoqda, o'zbek tilining fonetik me'yorlari buzilmoqda va xalqaro onomastik birliklarni qo'llashda izchillik yo'qolmoqda.

Professor Mirzayev bundan yarim asr avval aynan shunday holatlarning oldini olish uchun ilmiy tavsiyalar ishlab chiqqan edi. Uning transkripsiyaga oid qarashlari bugungi xalqaro onomastika, tarjimashunoslik va til me'yorlashtirish tamoyillari bilan to'liq uyg'unlashadi. Ayniqsa, global axborot makoni va sun'iy intellekt texnologiyalari sharoitida bu tavsiyalar nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyat ham kasb etmoqda. Mashinali tarjima tizimlari, elektron lug'atlar va avtomatik transliteratsiya dasturlarini yaratishda ham fonetik aniqlik tamoyili asosiy mezonlardan biri bo'lib qolmoqda.

Shu ma'noda olimning antroponim va toponimlar tarjimasiga oid qarashlari o'z davri uchun ilg'or ilmiy xulosa bo'lgani kabi, bugungi o'zbek tarjimashunosligining ham dolzarb nazariy masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu qarashlar tarjimada milliy o'zlikni, tarixiy xotirani va madaniy merosni asrashning muhim ilmiy tamoyillaridan biri sifatida alohida e'tirof etilishi lozim.

Lingvopoetika sari: ilmiy izlanishlarning mantiqiy davomi

Professor Ibodulla Mirzayevning ilmiy faoliyati nomzodlik dissertatsiyasi bilan yakunlanmadi. Aksincha, realiyalar tarjimasi, stilistika va badiiy matn ustida olib borilgan tadqiqotlar uni filologiyaning yanada murakkab va keng qamrovli sohasi – lingvopoetika muammolariga olib keldi. Tarjima jarayonida orttirilgan ilmiy tajriba, fransuz stilistikasi maktabi bilan yaqindan tanishish hamda badiiy matn ustida olib borilgan ko'p yillik kuzatishlar olimni bitta muhim xulosaga olib keldi: badiiy asarni muvaffaqiyatli tarjima qilish uchun, avvalo, uning poetik mohiyatini chuqur anglash zarur.

Aynan shu ilmiy ehtiyoj professor Mirzayevni lingvopoetik tadqiqotlarga yo'naltirdi. U badiiy matnni grammatik yoki leksik hodisalar yig'indisi sifatida emas, balki til, tafakkur, madaniyat va estetik tafakkurning murakkab sintezi sifatida talqin qildi. Uning nazarida matnning haqiqiy mazmuni alohida til birliklarida emas, balki ularning o'zaro munosabati, badiiy tizimi va estetik vazifasida namoyon bo'ladi.

Bu qarashlar 1987–1989-yillarda olimning yana Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) davlat universitetiga qaytib, professor Sergey Nikolayevich Ivanov rahbarligida ilmiy izlanishlarini davom ettirishiga asos bo'ldi. Mazkur davrda u lingvopoetik tahlil metodologiyasini chuqurlashtirib, badiiy matnning lisoniy va estetik tabiatiga bag'ishlangan fundamental tadqiqotlar olib bordi. Ushbu izlanishlar keyinchalik O'zbekiston Fanlar akademiyasi tizimida muvaffaqiyatli himoya qilingan doktorlik dissertatsiyasining nazariy asosini tashkil etdi.

Olim lingvopoetikani tilshunoslik va adabiyotshunoslikni o'zaro bog'lovchi sintetik fan sifatida talqin qiladi. Uning konsepsiyasiga ko'ra, lingvopoetikaning asosiy vazifasi badiiy matnning estetik tabiatini ochish, til vositalarining obraz yaratishdagi vazifasini aniqlash hamda muallif individual uslubining lisoniy asoslarini ilmiy jihatdan yoritishdan iborat. Shu bois u stilistika, poetika, ritorika, matnshunoslik va tarjimashunoslikni bir-biridan ajralgan yo'nalishlar emas, balki yagona filologik tizimning o'zaro bog'liq bo'g'inlari sifatida qaraydi.

Professor Mirzayevning ilmiy qarashlarida lingvopoetika faqat nazariy yo'nalish emas, balki filolog tafakkurini shakllantiradigan metodologik maktab hamdir. Uning fikricha, filologning bosh vazifasi matnni grammatik jihatdan tavsiflash bilangina cheklanmaydi; u matnning estetik, ma'naviy va madaniy qatlamlarini ham anglay olishi kerak. Faqat shundagina filolog badiiy asarning haqiqiy mohiyatini ochib bera oladi, tarjimon esa uni boshqa tilga adekvat ko'chirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Professor Mirzayevning ko'p yillik ilmiy va pedagogik faoliyati natijasida o'zbek filologiyasida lingvopoetik tafakkurning shakllanishi va rivojlanishiga mustahkam zamin yaratildi. Uning ilmiy ishlari, darsliklari, monografiyalari va shogirdlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bugungi kunda ushbu ilmiy yo'nalishning izchil taraqqiyotini ta'minlab kelmoqda. Shunday qilib, olimning tarjimashunoslikdan boshlangan ilmiy yo'li lingvopoetikaning mustaqil ilmiy konsepsiyasini yaratish bilan mantiqiy yakun topdi.

Bugungi o'zbek filologiyasi taraqqiyoti nuqtayi nazaridan qaralganda, professor Ibodulla Mirzayevning ilmiy merosi faqat o'z davrining mahsuli emas. U zamonaviy tarjimashunoslik, lingvostilistika, lingvopoetika va matn lingvistikasi rivojiga xizmat qilayotgan, ilmiy qimmatini saqlab qolgan fundamental nazariy merosdir. Uning ilmiy qarashlari yangi avlod tadqiqotchilarini mustaqil fikrlashga, matnni kompleks tahlil qilishga va filologiyani yaxlit ilmiy tizim sifatida anglashga undaydi. Ana shu jihati bilan professor Mirzayev yaratgan ilmiy maktab bugun ham yashamoqda va o'z taraqqiyotini davom ettirmoqda.

Ayniqsa, sun'iy intellekt, mashinali tarjima, korpus lingvistikasi va raqamli filologiya jadal rivojlanayotgan XXI asrda professor Mirzayev ilgari surgan ilmiy tamoyillar yangi mazmun kasb etmoqda. Milliy-madaniy mazmunni adekvat ifodalash, badiiy matnning estetik tabiatini anglash va tarjimada muallif uslubini saqlash masalalari bugungi kunda ham tarjimashunoslikning eng dolzarb muammolari bo'lib qolmoqda. Shu ma'noda professor Mirzayevning ilmiy merosi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti uchun ham mustahkam nazariy poydevor vazifasini bajaradi.

Professor Mirzayevning ilmiy maktabi yana bir muhim fazilati bilan ajralib turadi. U ilm-fanga tayyor xulosalarni emas, mustaqil fikrlash madaniyatini olib kirdi. Uning asarlarida ilmiy jasorat, xolislik, dalilga tayanish va ilmiy bahs madaniyati ustuvor o'rin egallaydi. Bu fazilatlar bugungi yosh tadqiqotchilar uchun ham yuksak ilmiy maktab bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu bois professor Ibodulla Kamolovich Mirzayevning ilmiy asarlarini, ayniqsa, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini qayta nashr etish, ularni zamonaviy ilmiy izohlar va bibliografik ko'rsatkichlar bilan boyitish, elektron shaklda keng ilmiy muomalaga kiritish bugungi o'zbek filologiyasi oldidagi muhim vazifalardan biridir. Bu nafaqat bir olimning ilmiy merosini tiklash, balki milliy tilshunoslik va tarjimashunoslik tarixini yanada to'liq yoritishga xizmat qiladi.

Muhtaram professor Ibodulla Kamolovich Mirzayev! Sizni muborak 80 yillik yubileyingiz bilan chin qalbimizdan samimiy muborakbod etamiz!

Sizning ko'p yillik ilmiy va pedagogik faoliyatingiz o'zbek filologiyasi taraqqiyotining yorqin sahifalaridan biridir. Tarjimashunoslik, fransuz tilshunosligi, stilistika, lingvopoetika va matn tahlili sohalarida yaratgan fundamental tadqiqotlaringiz bir necha avlod olimlari uchun ishonchli ilmiy manba va metodologik maktab bo'lib xizmat qilmoqda. Sizning ilmiy jasoratingiz, teran tafakkuringiz, ustozlik fazilatingiz va Vatanga, ilm-fanga sadoqatingiz hamkasblaringiz, shogirdlaringiz va keng ilmiy jamoatchilikning yuksak hurmatiga sazovor bo'lib kelmoqda.

Yarim asr avval yozilgan ilmiy tadqiqotlaringiz bugun ham o'z dolzarbligini yo'qotmaganining o'ziyoq Siz yaratgan ilmiy merosning umrboqiy ekanini tasdiqlaydi. Haqiqiy ilm vaqt sinovidan qo'rqmaydi. Sizning asarlaringiz ana shunday umrboqiy ilmiy meros sirasiga kiradi. Alloh taolo Sizga mustahkam sog'liq, uzoq va barakali umr, oilangiz bag'rida tinchlik-xotirjamlik, shogirdlaringiz ardog'ida baxtli hayot ato etsin. Ilmiy tafakkuringiz, boy tajribangiz va ustozlik maktabingiz bundan buyon ham o'zbek ilm-fani ravnaqiga xizmat qilishda davom etsin.

Yubileyingiz muborak bo'lsin, aziz Ustoz! Siz yaratgan ilmiy maktab va bebaho ilmiy meros kelajak avlodlar uchun hamisha ilhom va ibrat manbai bo'lib qoladi.

Umurqulov Bekpo'lat,
Termiz davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Xudoyqulov Abdulla Eshquvatovich,
Termiz davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Umurqulov Zafar Bekpo'latovich,
Termiz davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori